



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**  
**Ilmiy-uslubiy jurnal**  
**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba**  
**nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligining  
2023-yil 1-martdagi № 066379-  
raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga  
olingan va O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya  
komissiyasi rayosatining 2025-  
yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori  
bilan ro'yxatdan o'tkazilgan  
hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
dissertatsiyalarning asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan  
milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga  
kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center"  
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)  
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)  
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.  
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.  
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.  
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.  
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.  
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.  
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.  
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.  
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.  
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.  
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.  
Turopova S.K. – f.f.d., dots.  
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots  
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).  
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).  
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)  
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).  
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.  
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)  
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.  
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.  
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)  
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.  
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.  
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.  
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.  
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.  
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.  
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.  
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.  
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)  
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).  
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

## **N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA**

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

## **N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

## **G.A. AXMETOVA**

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

## **S.R. BOYPO'LATOV**

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

## **M.SH. CHORIYEVA**

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

## **N.X. DO'SMUXAMEDOVA**

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

## **B.A. ERDANAYEV**

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari .....37

## **N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV**

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

## **M.X. KURBOSHEVA**

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

## **O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV**

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

## **SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA**

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

## **Z.M. NORALIYEVA**

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

## **A.P. PARDAYEV**

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

## **J.R. SAYFIYEV**

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

## **A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV**

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

## **B.E. TURAYEV**

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

## **Z.I. XAKIMOV**

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

## **N.A. XAKIMOVA**

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

## **SH.D. XAYDAROVA**

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

## **L.L. XAYRULLAYEVA**

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

## **Y.Z. XUDAYAROVA**

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

## **R.A. XURRAMOV**

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

## **G.A. YUSUPOV**

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqe'lik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....150

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'rni.....164

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

## **G'A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

## **SH.T.YAKUBOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

## **N.B.RAUPOVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

## **M.SH.BURIYEVA**

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

## **Z.M.ALLAYEV**

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

## **Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV**

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

## **L.A.RAIMOV**

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

## **A.A.QARAQULOV**

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

## **N.A.UMAROVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

## **M.T.MENGNAROVA**

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

## **I.B.JURAEV**

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

## **D.A.BADALOV**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

## **F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV**

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

## **M.O.BEGALIYEVA**

Pattakesar.....257

Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti, Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasida dotsenti

**Xakimov Zafar Ibragimovich**

E-mail: zafar\_xakimov@tues.uz

### QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASH YO'NALISHLARI

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalashning asosiy yo'nalishlari, mexanizmlari va manbalari tahlil qilinadi. Jumladan, davlat budjeti, tijorat banklari kreditlari, xorijiy investitsiyalar, grantlar hamda davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, qishloq xo'jaligi, moliyalashtirish, investitsiya, kredit, grant, davlat-xususiy sheriklik, samaradorlik.

### НАПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются основные направления, механизмы и источники финансирования инновационной деятельности в сельском хозяйстве. В частности, анализируются возможности финансирования за счет государственного бюджета, банковских кредитов, иностранных инвестиций, грантов и государственно-частного партнерства. Особое внимание уделяется внедрению инновационных технологий с целью повышения эффективности сельского хозяйства и обеспечения его устойчивого развития.

**Ключевые слова:** инновации, сельское хозяйство, финансирование, инвестиции, кредит, грант, государственно-частное партнерство, эффективность.

### DIRECTIONS FOR FINANCING INNOVATIVE ACTIVITIES IN AGRICULTURE

#### ABSTRACT

This article examines the main directions, mechanisms, and sources of financing innovative activities in agriculture. It analyzes funding opportunities through the state budget, commercial bank loans, foreign investments, grants, and public-private partnerships. Special attention is given to the implementation of innovative technologies aimed at increasing agricultural efficiency and ensuring sustainable development.

**Keywords:** innovation, agriculture, financing, investment, credit, grant, public-private partnership, efficiency.

#### KIRISH

Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini va iste'mol bozorida xilma-xillikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish muhim masalalardan sanaladi. Zero, "... hozirgi vaqtda dunyoda global iqlim o'zgarishi va aholining tez sur'atlar bilan o'sib borishi ko'pchilik mamlakatlarda oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojning yanada oshishiga olib kelmoqda va shu bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni 70 foizga oshirishni taqozo etmoqda" [1]. Shu bois, mamlakatlarning oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish maqsadida qishloq xo'jaligida ekinlar diversifikatsiyasini

oshirish, qishloq aholisini ish bilan ta'minlash va ularning daromadini oshirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Global iqlim o'zgarishi o'ta sezuvchan xususiyatga ega qishloq xo'jaligiga va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, rivojlanayotgan davlatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining o'sishi va ularning iste'molini kamayishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 840 millionga yaqin kishi yoki har sakkiz kishidan bittasi to'yib ovqatlanmaslik muammosidan aziyat chekmoqda [2]. Shuningdek, tuproq eroziyasi, cho'llanishning kuchayib borishi qishloq xo'jaligi uchun global tahdid sifatida baholanib, sohaga innovatsiyalarni joriy qilishga to'g'ri

kelmoqda. Shu bois, dunyo olimlari tomonidan ekinlar diversifikatsiyasini oshirishga va iqlim o'zgarishiga moslashuvchan qishloq xo'jaligi ekinlarini ko'paytirishga doir ilmiy tadqiqotlarga keng urg'u berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "... har gektar yerdan olinadigan daromadni hozirgi o'rtacha 2 ming dollardan kamida 5 ming dollargacha yetkazishni muhim ustuvor vazifa" sifatida qo'ydi [7]. Ushbu maqsadga erishishda mavjud resurslardan oqilona foydalangan holda fermer xo'jaliklarining yuqori daromad olishiga, barqaror qishloq xo'jaligini yaratishga xizmat qiladigan qishloq xo'jaligida innovatsiyon loyihalarni joriy qilish va moliyalashtirish muhim o'rin tutadi. Shu bois, fermer xo'jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash hisobiga ularning daromadini oshirish, mavjud yer maydonlari, suv va boshqa resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan rivojlantirish modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish qishloq xo'jaligida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** A.V. Cheplyanskiy tadqiqot ishida qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tarmoqlar xususiyatidan kelib chiqib amalga oshirish eng samarali usul ekanligini ta'kidlaydi.

K. Piplz o'z asarida qishloq xo'jaligini soliqlar orqali qo'llab quvvatlash, ularni ham iqtisodiy ham ijtimoiy tomondan rivojlanishiga olib kelishini ta'kidlab o'tadi.

Yurtimiz olimlaridan bo'lgan A.D. Boymuratov o'zining dissertatsiyasida chorvachilikni kreditlashda mavsumiy ozuqa bazasini mustahkamlashga e'tibor berish va manzilli tashkil etishga e'tibor beradi.

A. Abdullayev tadqiqot ishida fermer xo'jaliklarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish orqali qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish lozimligi, asosan kreditlashda fermerlarning yer maydoni hajmidan kelib chiqib kafolat taqdim etish lozimligini aytib o'tadi [9].

Z. Xudoyberdiyev Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermer va dehqon xo'jaliklarini kreditlash tizimini takomillashtirish nomli tadqiqot ishida tarmoq xususiyatidan kelib chiqib, revolver kreditlash tizimini takomillashtirish lozimligini ta'kidlaydi [10].

U.M. Qo'chchiev o'zining tadqiqot ishida bir xil kredit limiti barcha dehqon xo'jaliklari uchun qo'llanilishi, garov talabi ko'pchilik kichik

xo'jaliklar uchun mos kelmasiligi, kredit olish jarayoni byurokratik to'siqlarni mavjudligi va uni bartaraf etish bo'yicha tavsiya berib o'tadi [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida olib borildi:


Tizimli tahlil – fermer xo'jaliklarining moliyaviy faoliyati va subsidiya mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi o'rganildi.

Qiyosiy tahlil – rivojlangan davlatlar tajribasi bilan O'zbekiston amaliyoti solishtirildi.

Empirik tahlil – mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, byudjetdan ajratilgan subsidiya hajmlari, fermerlarning samaradorlik ko'rsatkichlari asosida tahlillar amalga oshirildi. Ekspert baholash – agrar soha amaliyotchilari va ilmiy doira vakillarining fikrlari umumlashtirildi.

**Tahlil va natijalar:** Innovatsion faoliyat — bu yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, joriy etish va amaliyotda qo'llash jarayonidir. Qishloq xo'jaligida innovatsiyalar quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish;
- raqamli texnologiyalar (aqlli qishloq xo'jaligi);
- suvni tejovchi texnologiyalar;
- seleksiya va urug'chilikni rivojlantirish;
- ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish.



1-rasm. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi innovatsion - texnik ta'minoti tuzilmasi

Ushbu rasm qishloq xo'jaligida texnik innovatsiyalarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish tizimini bosqichma-bosqich aks ettiradi. Chap tomonda innovatsiyalarni ishlab chiqish jarayoni – ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlar orqali amalga oshirilishi ko'rsatilgan. O'ng tomonda esa yaratilgan innovatsiyalarni transfer qilish, ya'ni amaliyotga joriy etish mexanizmlari - agrotexnoparklar, maslahat markazlari va dilerlik tuzilmalari orqali yetkazilishi ifodalangan. Natijada ushbu ikki yo'nalish o'zaro bog'langan holda qishloq xo'jalik korxonalarida innovatsiyalarni keng qo'llashga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va uning samaradorligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularning turini kengaytirish va sifatini oshirish xorijiy investitsiyalarni jalb etmasdan, xalqaro moliya institutlari va bank tuzilmalarining yordami va qo'llab-quvvatlashiga tayanmasdan turib erishib bo'lmaydi.

Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Global ekologik fond, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti kabi boshqa ko'plab institutlar, shuningdek, xorijiy mamlakatlar hukumatlari agentliklarining shu borada ko'rsatayotgan yordami katta bo'lib, ularning ishtirokida yuzdan ortiq investitsiya va grant loyihalarini amalga oshirish uchun 1,1 milliard dollardan ortiq mablag' jalb etildi.

Ajratilgan moliyaviy mablag'lar bilan birga, birinchi navbatda, ilg'or agrosanoat texnologiyalarini jalb etish, qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish, marketing va jahon bozorlariga chiqish bo'yicha yangi texnologiyalarni joriy qilish borasida amaliy yordam va hamkorlik ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari davlat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqsadlarga erishishda xalqaro moliya institutlari, donor tashkilotlar va xorijiy investitsiyalar muhim moliyaviy manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki agrar sektorni innovatsion rivojlantirish katta hajmdagi kapital qo'yilmalarni, ilg'or texnologiyalarni va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini talab

etadi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ulushi 19–25 foiz atrofida bo'lib, mamlakat aholisining qariyb 49 foizi qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Bu esa agrar sektorning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham belgilab beradi. Shu bilan birga, ushbu soha mamlakatdagi jami suv resurslarining qariyb 90 foizini iste'mol qilishi bilan ajralib turadi, bu esa resurslardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston va BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) o'rtasidagi hamkorlikning yo'lga qo'yilishi agrar islohotlarning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mazkur hamkorlik doirasida qishloq xo'jaligida bilimlar transferi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda ilg'or agrotexnologiyalarni joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Shuningdek, Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi (IFAD) bilan hamkorlik qishloq hududlarida kambag'allikni qisqartirish, kichik fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularning bozorga integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu fond tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar asosan inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular innovatsion qishloq xo'jaligi tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar qishloq xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xususan, irrigatsiya tizimlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan [11]. Ma'lumki, O'zbekistonning iqlim sharoiti qurg'oqchil bo'lib, qishloq xo'jaligi asosan sug'orishga bog'liq. Shu sababli irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish strategik ahamiyatga ega. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda mavjud irrigatsiya infratuzilmasining eskirganligi suv yo'qotilishining yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.

Xususan, Jahon banki tomonidan 200 million AQSh dollari miqdorida ajratilgan mablag'lar irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suv yo'qotishlarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan [5]. Ushbu loyiha natijasida 232 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlarining suv ta'minoti yaxshilanishi

va yiliga 540 million kub metr suvni tejash imkoniyati yaratilishi kutilmoqda [7]. Bu esa innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarining amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Jahon banki bilan hamkorlikda amalga oshirilgan bog'dorchilikni rivojlantirish loyihalari ham muhim natijalarni bermoqda. Xususan, ushbu loyihalar doirasida 300 million dollardan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilib, 5 mingdan ortiq fermer va agrobiznes subyektlari qo'llab-quvvatlandi. Natijada hosildorlik 25–30 foizga oshgan, yalpi daromad esa 35 foizga ko'paygan. Bu esa innovatsion investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi [8].

Bundan tashqari, Global ekologik fond (GEF) va boshqa donor tashkilotlar tomonidan ajratilayotgan grant mablag'lari ekologik barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish, tuproq degradatsiyasini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashuv choralarini ko'rish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar esa hududiy irrigatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish va suv resurslarini boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan. Bu loyihalar orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqarorlashtirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati kengaymoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi ko'p manbali (diversifikatsiyalashgan) model asosida shakllanmoqda. Bunda davlat budjeti mablag'lari bilan bir qatorda, xalqaro moliya institutlari, xorijiy investitsiyalar va grantlar muhim o'rin tutadi. Kelgusida ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun raqamli moliyalashtirish instrumentlarini keng joriy etish, agrostartaplarni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish zarur.


Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda innovatsiyalarni moliyalashtirish tizimi rivojlanib bormoqda, ammo quyidagi muammolar mavjud:

- Venchur moliyalashtirish yetarli darajada rivojlanmagan;
- Xususiy investorlar faolligi past;
- Sug'urta tizimi past.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki,

innovatsiyalarni moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik muhim ahamiyatga ega.

So'nggi 5 yilda agrar sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan. 2-rasm



2- rasm. 2020–2024 yillarda agrar sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmi va o'sish sur'atlari.

Quyidagi rasm 2020–2024 yillar davomida jalb qilingan investitsiyalar hajmi va ularning o'sish sur'atlarini solishtirib ko'rsatadi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, investitsiyalar hajmi izchil oshib, 2020 yildagi 15,2 trln so'mdan 2024 yilda 34,9 trln so'mga yetgan. O'sish sur'atlari esa 2023 yilda eng yuqori — 125 % darajaga chiqqan bo'lsa-da, 2024 yilda biroz pasayib 123 %ni tashkil qilgan. Umuman olganda, grafik investitsiya oqimlarining barqaror o'sib borayotganini va iqtisodiy faollikning mustahkamligini aks ettiradi [13].

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan agrar kreditlar hajmi ham oshib bormoqda. 2023-yilda agrar sektor kreditlari 18-20 foiz ni tashkil etdi. Asosiy muammolar yuqori foiz stavkalari, garov taminoti muammosi, kichik fermerlar uchun moliyaviy resurslarning cheklanganligi hisoblanadi [14].

**Xulosa.** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni samarali moliyalashtirish bevosita xalqaro hamkorlik darajasi, investitsion muhit va institutsional islohotlarga bog'liqdir. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik nafaqat moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki ilg'or bilim va texnologiyalar transferini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada agrar sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, eksport salohiyatini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash imkoniyatlari

kengayadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsiyalar joriy etilgan fermer xo'jaliklarida hosildorlik 25-30 foizga o'sgan. Suv sarfi 30-40 foizga kamaygan, ishlab chiqarish tannarxi 10-12 foiz kamaygan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Bank. Uzbekistan: Modernizing Irrigation Infrastructure and Agricultural Development. – Washington, DC. 2024.
2. Asian Development Bank (ADB). Agricultural Development and Water Management Projects in Uzbekistan. – Manila. 2023.
3. IFAD. Rural Development and Agricultural Support Programs in Central Asia. – Rome. 2022
4. FAO. The State of Food and Agriculture. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations. 2023.
5. Global Environment Facility (GEF). Sustainable Land Management and Green Agriculture Projects. – Washington, DC. 2022.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-son farmoni, 2019 yil 23 oktyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnoma. . – Toshkent. 2020 yil 29 dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi (2020–2030 yillar)".
9. Abdullayev A., Karimov Sh. Qishloq xo'jaligida innovatsion rivojlanish asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 2021.
10. Xudoyberdiyev Z. Agrar sohada investitsiya siyosati va samaradorlik. – Toshkent. 2022.
11. OECD. Innovation, Agricultural Productivity and Sustainability. – Paris. 2021.
12. UNDP. Sustainable Agriculture and Climate Change Adaptation in Uzbekistan. – New York. 2023.
13. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari to'plami. – Toshkent. 2024.
14. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. O'zbekiston investitsiya qo'llanmasi (Agriculture sector). 2023.